

O'ZBEKISTON AHOLISI STATISTIKASI HAQIDA

G'iyosova Ozoda

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi

Shakirova Nigora Axralovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiy statistika kafedrasida dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu tezis O'zbekiston aholisining statistik ma'lumotlari, mamlakat demografik holati va ijtimoiy tarkibi haqida ma'lumotlar beradi. Aholi statistikasi, davlat siyosatining shakllantirilishida, iqtisodiy rivojlanish yo'li belgilashda va boshqa strategik maqsadlarda foydalaniladi. Bu statistika ma'lumotlaridan foydalanib, davlat organlari, akademik tadqiqotchilar, iqtisodchi va boshqa sohalardagi mutaxassislar O'zbekistondagi aholining holatini tahlil qilishda yordam olishadi.

**Kalit so'zlar:** Statistik ma'lumotlar, doimiy aholi, mavjud aholi, demografiya, Rim, Eron, aholi harakati.

**Annotation:** This thesis provides information on the statistical data of the population of Uzbekistan, the country's demographic situation and social structure. Population statistics are used in the formulation of state policy, in defining the economic path, and for other strategic purposes. These statistical data are used by experts in capacity, state bodies, academic researchers, economists and other fields to analyze the situation of the population in Uzbekistan.

**Key words:** Statistics, permanent population, current population, demography, Rome, Iran, population movement.

**Аннотация:** В данной диссертации представлены сведения о статистических данных о населении Узбекистана, демографической ситуации и социальной структуре страны. Статистика населения используется при формулировании государственной политики, определении пути экономического развития и других стратегических целях. Используя эти статистические данные, государственные органы, научные исследователи, экономисты и эксперты других областей получают помощь в анализе положения населения в Узбекистане.

**Ключевые слова:** Статистика, постоянное население, текущее население, демография, Рим, Иран, движение населения.

Aholi bu muayyan hudud, qit'a, mamlakat, tuman, shaharda istiqomat qiluvchi odamlar majmui tushuniladi. Aholi harakati va boshqa tadqiq etish maxsus fan Demografiya shug'ullanadi, bunda aholini tug'ulish, o'lim soni va aholi statistikasini o'rganuvchi asosiy sohadir. O'zbekiston aholi statistikasi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan yuritiladi. Bu statistika tizimida O'zbekistonning aholisi, jinsiy, iqtisodiy va ijtimoiy ko'rinishi, shahar va qishloq hududlari bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi.

Aholining tabiiy harakati natijasida aholi soni va uning yoshi, jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tug'ilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. O'lganlar soni esa aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy

tarkibidagi o'zgarishlar jamiyatda ma'lum sotsial muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining tabiiy harakati jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu bois aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Aholining miqdoriy xususiyatlari ma'lum millat, hudud aholisi sonining o'zgarib (o'sishi yoki kamayishi) borishida ifodalanadi. Aholining sifatiiy xususiyatlari esa, asosan ma'lum millat yoki hudud aholisining salomatlik va ma'lumotlilik darajasida, o'rtacha umr ko'rish muddatida ifodalanadi.

Tarixga nazar solsak O'rta Osiyo hududida yashovchi ibtidoiy odamlarni qadimgi manzilgohlari quyi paleolit davriga to'g'ri keladi. Ayrim tarixiy manbalarda Eron shohi Doro I ning Behustun yozuvlarida o'zbek xalqining qadimgi ajdodlari xorazmiylar, sug'diylar, saklar, baqtriyaliklar to'g'risida ma'lumot berilgan. Yunon va Rim tarixchilari Geradot, Strabon, Arrian va Ptolamey hozirgi O'zbekiston hududida yashagan saklar haqida ma'lumotlar qoldirilgan. Qadimgi O'zbekiston hududiga ko'plab urushlar bo'lib o'tganligi tufayli aholi soni o'zgarib turgan, Fors va Mo'gullar va boshqa bosqinlar, urushlar oqibatida har xil o'zgarishlar bo'lib ketgan.

Shunday qilib, aholini takror barpo bo'lishi statistikasini tadqiq etish XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab to bugunga qadar qator olimlar tomonidan rivojlantirildi. Ammo qayd etish lozimki, hozirgi kunda, O'zbekistonda yangi iqtisodiy sharoitda aholini takror barpo bo'lishi jarayonlariga bag'ishlangan tadqiqotlar etarli darajada emas. Kun sayin demografik jarayonlar o'zgarib borayotgan bir sharoitda chuqur statistik tahlil qilish, ularning istiqbollari belgilash jamiyat taraqqiyotini rejalashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaxolanki, bu kabi ilmiy tadqiqotlar jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini yanada mustahkamlashning, shuningdek aholini ish bilan bandligini ta'minlash kabi dolzarb masalalarning asosini tashkil etadi.

Jamiyat mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'mol qiluvchilar ya'ni aholi soni va tarkibiga bog'liq. O'zbekiston aholisi yildan – yilga yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholi soni va tarkibini o'rganishning asosiy usuli ro'yxatga olishdir. Aholi harakati ko'rsatkichlari mavjud bo'lib ular aholi demografiyasini o'rganishda katta hizmat qiladi. Aholi sonini aniqlashda aholi ro'yxati boshlang'ich manba hisoblanadi. Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonda 1926.1939.1959.1970 va 1989 yilda aholi ro'yhati o'tkazilgan.

Aholi sonini hisoblashda va ro'yxatga olish jarayonida doimiy va mavjud aholi, vaqtincha yo'qlar va vaqtincha yashovchilar sonini hisobga olish zarur.

Doimiy aholi – bu hisob o'tkazilayotgan vaqtda mazkur hududda bo'lish, bo'lmasligidan qa'tiy nazar istiqomat qiluvchilar soni.

Mavjud aholi – mazkur hududda doimiy istiqomat qilish yoki qilmasligidan qat'iy nazar hisob o'tkazilayotgan vaqtda hududda mavjud bo'lgan aholi. Bu usullar yordamida aholi sonini aniqlashda katta yordam beradi. Aholi sonining tug'ilish va o'limlar hisobiga o'zgarishini aholini tabiiy harakati deb ataladi. Hozirgi kunga kelib O'zbekistonda 17.02.2023-yil holatiga ko'ra 36 183 602 bundan erkaklar 18 167 787 ayollar esa 17 939 830 kishini tashkil etmoqda. Markaziy Osiyodagi mamlakatlar orasidagi eng ko'p aholi O'zbekistonda joylashgan.

Davlatimizni ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqlar shu yerlarda iste'qomat qilishi u davlatga vazifalar topshiradi, bulardan biri aholini hisobini chiqarishdir. Tarixchilar o'z zamonida yozma manbalarda iqtisodi, aholisi, madaniyati va boshqa malmotlarni yozib

qoldirgan. Shu sababli aholini aniqlash davlatga zarur bo'lgan, soliq solish va boshqa yo'nalisharga qo'l kelgan.

Davlatimiz aholisini hisobga olishda bugungi kunda zamonaviy usullardan foydalanib kelinmoqda, shuni aytishimiz mumkinki hozirda aholini moddiy va ma'naviy taminotlarini bundanda yaxshilash zarur. Statistika ham katta o'zgartirishlar kiritib kelmoqda va aholini sonini aniqlash va ularni nazorat qilish uchun yordam berib kelmoqda.

Xulosa qilib aytamizki davlatimizni aholi statistikasini usullarini yaratish va uni zamonga munosim harakat qishimiz joiz bo'ladi. Statistika aniqlikni yaxshi ko'ruvchi fandır shunga asosan u matematikaga bog'liq bo'ladi. Aholini ro'yxatga olish uchun yordam beradigan va unga asos bo'ladigan g'oyalarni topishimiz kerak bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi. 2006.
2. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashiryoti, 2006-yil
3. Хорев Б.С., Чапек В.Н. Проблемы изучения миграция населения. - М., 1978. - С.116.
4. Шелестов Д.К. Демография: История и современность. - М., 1983. - С.21
5. Stat.uz
6. Wikipediya.uz